

XORAZM VILOYATIDA KISHI LAQABLARINIG QO'LLANILISHI VA ULARNING ETIMOLOGIK IZOHLARI (Hazorasp tumani Ovshar qishlog'i misolida)

Ismoilova Munisa

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti
Ingliz tili va adabiyoti, 1- fakultet, 2307-guruh talabasi
Ilmiy rahbar: Saloxiddinova Sayyora

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xorazm viloyatida, xususan Hazorasp tumani Ovshar qishlog'ida kishi laqablarining qo'llanilishi va ularning etimologik ma'nolari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijajida laqablar insonning tashqi ko'rinishi, xarakteri, kasbi' ijtimoiy mavqeyi hamda tarixiy kelib chiqishini aks ettirishi aniqlanadi. Shuningdek, ular mahalliy til va madaniy qadriyatlarni saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: onomastika, antroponimiya, laqab, etimologiya, semantika, Xorazm shevasi, Hazorasp tumani, Ovshar qishlog'i, kishi nomlari' o'zbek tili, lingvomadaniyat, folklor.

Abstract. This article analyzes the use of personal nicknames in Khorezm region, especially in Ovshar village of Hazorasp district, and explains their etymological meanings. The study shows that nicknames reflect people's appearance, character, occupation, social status, and historical background. They also preserve local language and cultural identity

Keywords: onomastics, anthroponymy, nickname, etymology, semantics, Khorezm dialect, Hazorasp district, Ovshar village, personal names, Uzbek language, linguoculture, folklore.

Аннотация. В данной статье анализируется употребление прозвищ в Хорезмской области, в частности в селе Овшар Хазараспского района, а также их этимологические значения. Исследование показывает, что прозвища отражают внешность человека, характер, профессию, социальный статус и историческое происхождение. Кроме того, они сохраняют местный язык и культурную идентичность.

Ключевые слова: ономастика, антропонимия, прозвище, этимология, семантика, хорезмский диалект, Хазараспский район, село Овшар, личные имена, узбекский язык, лингвокультура, фольклор.

“Onomastika” so‘zi yunon tilidan olingan bo‘lib, “nom qo‘yish san‘ati” degan ma‘noni anglatadi. Ma‘lumki, onomastika tilshunoslikning atoqli otlarni o‘rganishga ixtisoslashgan sohasi bo‘lib, u nomlarning kelib chiqishi, shakllanishi hamda tarixiy taraqqiyotini tahlil qiladi. Shu bilan birga, ushbu fan tilda mavjud bo‘lgan barcha atoqli nomlar majmuasini ham qamrab oladi. Atoqli nomlar ifodalagan ob‘ektlarning turiga qarab, onomastika bir necha bo‘limlarga ajratiladi. Shunga ko‘ra onomastikaning muhim bo‘limlaridan biri hisoblangan antroponimiya alohida e‘tibor qaratish joiz bo‘ladi. N.V.Podolskaya antroponim terminini ikki asosiy qismga bo‘lgan bular ism, otasining ismi, laqab, taxallus, familiya, kriptonim (laqab, ism, nom), andronim, ginekonim, patronim kirishini aytib o‘tgan [10,31].

Mustaqillik yillarida esa antroponomikaga bo‘lgan qiziqish ortdi. Masalan, S. Rahimov Xorazm vohasi antroponimlarini tadqiq qilgan bo‘lsa N. Husanov esa X asr

yozma yodgorliklaridagi kishi nomlarini o'rgangan. M.Tillaeva Xorazm onomastikasini "Avesto" bilan solishtirgan va u yerda uchraydigan nomlar yozuvchining badiiy maqsadini ifodalashda ishlatilishini aniqlagan. Mazkur tadqiqotda aynan antroponimik birliklardan biri - laqablar tahlil qilinadi hamda ularning Xorazm viloyatidagi qo'llanishi va o'ziga xos etimologik ma'nolari izohlanadi.

Hozirgi kunda antroponimik birliklar deganda nafaqat kishilarning ismi, familiyasi va otasining ismi emas, balki ularning laqab va taxalluslari ham tushuniladi. Laqablar uzoq tarixiy jarayon natijasi bo'lib, ular kishilarga xalq orasida qadimdan odat tusiga kirgan. Laqablar ko'pincha shaxsning tashqi ko'rinishi, xulqi, kasbi, yashash joyi yoki muayyan voqea bilan bog'liq xususiyatlari asosida paydo bo'lgan. Har bir laqab o'z davrining ijtimoiy, madaniy va til jihatlarini aks ettiradi va odam haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda muhim rol o'ynagan. E.Begmatov "O'zbek tili antroponimikasi" nomli nomzodlik dissertatsiyasida laqabni shunday ta'riflagan edi: "Laqab - bu shaxsning tashqi ko'rinishi yoki xarakteriga xos belgi, shuningdek, uning ijtimoiy mavqei yoki nasl-nasabiga qarab berilgan nomdir. Laqablar atoqli ot sifatida ham qaraladi" [1, 12]

M.N.Chobanov esa ism, familiya va otaning ismini asosiy, laqab va taxallusni esa qo'shimcha nomlar kategoriyasiga kirgizadi: "Laqab - bu norasmiy qo'shimcha nom bo'lib, jamiyatda bir kishini boshqasidan ajratishga xizmat qiladi" [7, 28].

Ma'lumki, turkiy tillar oilasiga mansub bo'lgan o'zbek tili o'zining juda qadim, boy va madaniy tarixiga ega til hisoblanadi, va shuning uchun bo'lsa kerak, o'zbek xalqi o'zining orzu-intilishlari va maqsadlarini ana shu til orqali dunyoga bildirgan. Shu tilda buyuk ilmiy va badiiy asarlar yaratilgan. Tilimizning boyligi, ayniqsa, xalq og'zaki ijodi namunasi bo'lgan leksik birliklarda yaqqol namoyon bo'ladi. Ana shu leksik birliklardan biri laqablar hisoblanadi.

Laqablar shaxsning ma'lum bir xususiyatini ifodalovchi, asosan kulguli va kimgadir kinoya yo'lida aytilgan mazmunli nomlardir va og'zaki nutqda ishlatiladi. Laqablar insonga ismi, familiyasi yoki ota ismi kabi doimo birga yashaydigan ikkilamchi nom sanaladi. Ilmiy manbalarda laqab so'zi quyidagicha sharhlangan: "laqab" - arabcha so'z bo'lib, "ikkinchi nom", "taxallus", "laqab" ma'nolarini anglatadi. Biror xususiyatiga ko'ra kishiga hazil qilib yoki masxaralab beriladigan qo'shimcha nom; shuningdek, ma'lum maqsadda o'zgartirib olinadigan nom [6.53], deya izoh keltiriladi.

Xorazm viloyatida laqablarni qo'llash boshqa viloyatlarga nisbatan keng tarqalgan hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda tahlil qilingan laqablar asosan Xorazm viloyati Hazorasp tumani Ovshar qishlog'ida yashovchi yoshi katta aholi vakillaridan og'zaki suhbat va so'rovlar asosida jamlandi. Bu hududda yashovchi istalgan odamni avlod ajdodini shu laqab orqali bilish mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, laqablar kishilarning qarindoshligini, ularning o'tmishdagi ajdodlari qanday bo'lganini, qanday ish bilan shug'ullanganini, kasblarini, ijtimoiy o'rnini, obro'sini, odob-axloqini osongina aytib bera oladi. Shuningdek, Xorazmda to'yga yoki marosimlarga aytishda ham aynan shu oilaning laqabi ishlatiladi. Shundan odamlar keyin tanib olishadi.

1. Masalan: Insonni xulq-atvorini ifodalaydigan laqablar

Jamaqla - ochko'z, yeb to'ymaydigan

Karlar - eshitib turib eshitmaslikka oladigan

Lopila - lofchi, ko'p gapiradigan

2. Insonning tashqi ko'rinish (jismoniy belgi)ni ifodalaydigan laqablar

Lo'ppila - semiz, baquvvat tana

- Ko'sa** - kamchilik (ya'ni ozchilik yoki nimaningdir yetishmasligi)
3. Insonning kasb-hunaridan kelib chiqib qo'yiladigan laqablar
- Sartaroshlar** - ajdodlari sartaroshlik qilgan
- Pomidorlar** - issiqxonada sabzavot yetishtirgan
- O'rislar** - Rossiyadan tovar olib kelib savdo qilgan
- So'filar** - cho'pon va uni (qush bilan bog'liq)
4. Insonlarga kinoya / masxara asosidagi berilgan laqablar
- Kuchuklar** - kinoya qilib aytilgan gapdan kelib chiqqan
- Mang'itlar** - toshbag'ir, qattiq ma'nosida (salbiy baho)
- To'pillar** - hujum qiluvchi, tajovuzkor ma'noda
- Garmalar** - ko'rsichqonga o'xshatib yer qazib ko'p yerlarni ochgani uchun berilgan
5. Insonlarga ijtimoiy kelib chiqish obro' asosida berilgan laqablar
- Eshonlar** - ajdodlari mulla, diniy obro'ga ega bo'lgan
- Boylar jami** - Qadimdan juda boy bo'lgan oila vakillariga nisbatan qo'yilgan
- Xulosa qilib aytganda, Xorazm viloyatida kishi laqablari nafaqat til birliklari, balki xalqning tarixiy, ijtimoiy va madaniy hayotini aks ettiruvchi muhim fenomen hisoblanadi. Ular insonning shaxsiy xususiyatlarini ifodalash bilan birga, avlod-ajdod, kasb-kor va jamiyatdagi o'rnini aniqlashda ham muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Laqablarning etimologik tahlili esa til boyligini ochib berish, milliy qadriyatlarni anglash va saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, laqablarni o'rganish nafaqat lingvistik, balki madaniy va ijtimoiy jihatdan ham dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Матназаров М., Рўзимова Г. Ономастика фанидан ўқув-услубий мажмуа. – Урганч: Урганч давлат университети, Ўзбек тилшунослиги кафедраси, 2022.
2. Каримбоева М. Хоразм шевасидаги антропоним ва лақабларнинг ўрганилиши // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани материаллари.
3. Давлатова У. Антропоним тушунчасининг мазмуни ва моҳияти // Таълим ва ривожланиш таҳлили онлайн илмий журнали. -2024. - Т. 4. - №12.
4. Абдуллаева М. An etymological study of personal nicknames: The case of Amudarya district. - 2025.
5. Бегматов А. Э. Ўзбек тили антропономикаси. — Тошкент: “Фан”, 2013.